

INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISH YO'LLARI

Rajabova Nargiza Ahmadovna

A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti katta o'qituvchisi

Rahmonova Farangiz Furqatovna

Buxoro innovatsiyalar Universiteti magistranti

Annotatsiya: *Inklyuziv sinflarda umumta'lim maktablarining barcha o'qituvchilari faoliyat olib boradi, faqat sinfdagi imkoniyati cheklangan bolalar bilan maxsus ta'lim mutaxassislari (surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog) maxsus o'qituvchi sifatida hamkorlikda ish olib boradi. Inklyuziv ta'lim umumta'lim dasturlari asosida har bir yo'nalishdagi (ko'rishdagi, eshitishdagi, aqliy faoliyatida muammosi mavjud) bolalarga yo'naltirilgan, moslashtirilgan o'quv dasturlari asosida individual yondashuv orqali o'qitiladi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv, ta'lim, nuqsonli bolalar, ijtimoiy muhofaza, ijtimoiylashish, zaiflik, imkoniyati cheklangan, ilmiy salohiyat.*

Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan tasnifnomaga ko'ra organizmdagi domiy buzilishlarga olib keluvchi, hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi, alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi.

Bunday ijtimoiy yordam yo'nalishlaridan biri zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy rehabilitatsiya hisoblanadi.

Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy reabilitatsiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir.

Uning asosiy vazifasi - maxsus tashkil etilgan suhbat vositasida shaxsning ijtimoiy statusini tiklash, uning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini ta'minlashdir.

Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi quyidagilarda:

- Olam bilan aloqaning buzilganligi;
- Kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;
- Tabiat bilan muloqotning cheklanganligi;
- Bir qator madaniy qadriyatlaming yetishib bo'lmasligi muammosi;
- Elementar ta'limni ololmaslik.
- Bu muammo faqatgina sub'yektiv bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir;

Qobiliyat va iste'dodni namoyon qilishni chegaralanganligi. Nogiron bola tengdoshi kabi qobiliyatli iste'dodli bo'lishi mumkin, biroq o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, aniqlash va ular orqali jamiyatga foyda keltirishi uchun unga imkoniyatlarning teng emasligi to'sqinlik qiladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, imkoniyati cheklangan insonlarning psixologik holatida quyidagi emotsional hodisalar kuzatiladi:

1. Tengdoshlari va yaqinlari bilan muloqotning o'tkir yetishmasligi hissi;
2. Kasallikning rivojlanishi natijasida, yoki tanani mayib qiluvchi davolash usuli ta'sirida o'zining "Jismoniy meni"ni qabul qilishdagi qiyinchilikni (bola davolash ta'sirida semiradi, sochi to'kilib ketadi, tez o'sadi, buning ta'sirida bola dorilarni iste'mol qilishdan bosh tortishi mumkin) paydo bo'lishi;
3. Ijtimoiy qarovsizlik, zaiflik, jamiyat tomonidan voz kechish hissining paydo bo'lishi;
4. Qo'rquvlar (ko'pincha, parodaksal xarakterga ega bo'ladi: ular bolaning hozirgi paytdagi aktual holati bilan bog'liq va qisman kelajakda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar bilan bog'liq bo'ladi);
5. Oldinda kutayotgan operatsiya bilan bog'liq qo'rquv;
6. Kasallikning residivi oldida qo'rquv;
7. Yolg'izlik hissi, ammo ayni paytda bola u uchun ahamiyatli bo'lgan insonlar bilan uchrashishdan ham qo'rqishi mumkin;
8. 4-5 yoshdan boshlab his etiladigan o'limdan qo'rqish hissi (yetti yoshli bola: atrofida bolalar o'lmoqda, men ham tez orada o'lishim mumkin, buni bilaman, men o'limdan qo'rqaman);

Imkoniyati cheklangan ayollar bilan ijtimoiy rehabilitatsion ishlarni olib borishda mana shu xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyat ko'rsatish kerak...

Hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalar davlat umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olishi ta'minlanmagan. Bu jarayon imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishida, o'zini erkin va jamiyatga kerakli inson deb bilishiga, jamiyatga foyda keltirish, o'zini o'zi boqa olishi mumkinligiga yordam beradi. Bu davlatimizning eng ahamiyatli ishlaridan biri hisoblanadi. Chunki imkoniyati cheklangan bolalar rivojlangan davlatlarda allaqachon ijtimoiylashib bo'lgan. Bu esa jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shishga xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullajonovna G.N. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5
2. Djurayeva, S. (2020). Ijtimoiy sherikchilik asosida imkoniyati cheklangan shaxslarga majmuaviy yordam ko'rsatish. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. 22. Muzaffarova X. (2020). Maxsus maktab internatlarda olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. www.yuz.uz
5. www.norma.uz. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim joriy etiladi.-17.10.2020.
6. www.kun.uz. Inklyuziv ta'lim uchun 5 yillik reja.- 18.03.202

7. N.A.Rajabova O‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash metodikasi Innovative developments and research in education: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd November, 2022) – Canada, Ottawa : "CESS", 2022. Part 11-121p